

Genetik olimi, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti Shahlo Turdikulova Qozog‘iston Milliy tabiiy fanlar akademiyasi akademigi etib saylandi

Biologiya fanlari doktori va O‘zbekiston Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti, professor Shahlo Turdikulova Qozog‘iston Milliy tabiiy fanlar akademiyasi akademigi etib saylandi. Mazkur unvon Shahlo Turdikulovaga Qozog‘iston Milliy fanlar akademiyasi prezidiumida topshirildi.



Shahlo Turdikulova Respublikamizning jahonga taniqli olimlaridan biri bo‘lib, uning muallifligidagi 78 ta ilmiy maqolalardan 42 tasi chet elda chop etilgan, shuningdek 3 ta kitob va monografiya muallifi hamdir. “Web of Science”ga ko‘ra Xirsh indeksi 14 ga teng, iqtiboslar statistikasi 1810 ni tashkil qiladi. Shuningdek, uning ilmiy maqolalari impakt-omili O‘zbekistonda eng yuqori bo‘lib, 481,28 ko‘rsatkichni tashkil etadi, shuningdek nufuzli “Nature” ilmiy jurnalida uchta maqola chiqargan yurtimizdagi yagona olim sanaladi.



- Ko'p yillar davomida qozog'istonlik hamkasblar bilan hamkorlik qilib, biotexnologiya va inson genetikasi sohasida qo'shma tadqiqotlar olib bormoqdamiz. Bunday tadqiqotlardan biri Markaziy Osiyo xalqlarining kelib chiqishi va Yevrosiyo populyatsiyalari bilan genetik aloqalariga bag'ishlangan. Uning natijalari "Nature" jurnalida chop etildi. Ushbu tadqiqotlar mintaqamizdagi eng ko'p tarqalgan kasalliklarning genetik asoslarini, shu jumladan yangi tug'ilgan chaqaloqlarning genetik patologiyalarini aniqlashga yordam berdi. Bugungi kunda bizning tadqiqotlarimiz natijalari O'zbekiston tibbiyot muassasalarida qo'llanilib kelinmoqda, shuningdek, neonatal skrining test to'plamlari va tijorat genetik pasportini ishlab chiqishda foydalanilmoqda. Bu fuqarolarimizning sog'lig'i va hayot sifatini yaxshilashdagi muhim qadamdir, - dedi prof. Turdikulova.

Sh. Turdikulova Ilg'or texnologiyalar markazida inson genetikasi va biotexnologiyasi bo'yicha ilmiy maktabga asos solgan va O'zbekistonda koronavirus pandemiyasiga qarshi kurashda katta hissa qo'shgan olimlardan. Hozirda u mazkur Markazni boshqaradi. Avvalroq professor Turdikulova O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 80 yillik tarixida rahbarlik lavozimini egallagan birinchi ayol bo'lganligi haqida xabar berilgan edi. 2024-yil aprel oyida ushbu lavozimga tayinlanishidan oldin u O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining o'rinbosari lavozimida ishlagan. 2018-yilda ilm-fan va innovatsiyalar sohasida xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga qo'shgan salmoqli hissasi uchun Shahlo Turdikulova "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlangan.

Ma'lumot uchun: Qozog'iston Tabiiy fanlar akademiyasi asosiy ilmiy yo'nalishlar, jumladan, biotibbiyot, farmatsevtika fanlari va biotexnologiya bo'yicha yetti bo'limda faoliyat yurituvchi Qozog'iston va xorijiy olimlarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, akademiyaning 13 ta hududiy filiallari mavjud bo'lib, ularda tabiiy fanlarning turli sohalarida loyihalar va dasturlar ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Shuningdek, u ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashirishni qo'llab-quvvatlash va ularni me'yoriy-huquqiy baza bilan ta'minlash bilan shug'ullanadi, shuningdek, olimlarga innovatsion ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etishda amaliy yordam beradi.